

## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 50 481 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 26 287 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 52,1% ini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (47,7 %), savdo (17,9 %), sanoat (9,8 %) va qurilish (4,9 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2025- yil 1-iyul holatiga)**

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan %da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan %da</i>
<b>Jami</b>	<b>50 481</b>	<b>100,0</b>	<b>26 287</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 078	47,7	10 729	40,8
sanoat	4 945	9,8	2 336	8,9
qurilish	2 490	4,9	1 210	4,6
savdo	9 051	17,9	5 233	19,9
tashish va saqlash	701	1,4	381	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 217	4,4	1 258	4,8
axborot va aloqa	438	0,9	243	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	484	1,0	379	1,4
boshqa faoliyat turlari	6 077	12,0	4518	17,3

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 32 771 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 18 668 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 57,0 % ini tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning ulushi) savdo (27,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (19,4 %) sanoat (15,1 %) va qurilish (7,6 %) sohalariga to'g'ri keldi.

**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2025- yil 1-iyul holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
<b>Jami</b>	<b>32 771</b>	<b>100,0</b>	<b>18 668</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 368	19,5	3 110	16,7
sanoat	4 945	15,1	2 336	12,5
qurilish	2 490	7,6	1 210	6,5
savdo	9 051	27,6	5 233	28,1
tashish va saqlash	701	2,1	381	2,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 217	6,8	1 258	6,7
axborot va aloqa	438	1,3	243	1,3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	484	1,5	379	2,0
boshqa faoliyat turlari	6 077	18,5	4 518	24,2

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri 8 622 ta (26,3 %), Sharof Rashidov 4 631 ta (14,1 %), G'allaorol 3 044 ta (9,3 %) va Zomin 2 892 ta (8,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1-iyul holatiga 18 668 taga yetib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 166 taga kamaydi (o‘shish sur‘ati 99,1 %). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 28,0 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 16,7 %, sanoat – 12,5 %, qurilish – 6,5 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,7 %, tashish va saqlash – 2,1 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,0 %, axborot va aloqa – 1,3 %, boshqa sohalar – 24,2 % ni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

<b>Jami:</b>	<b>18 668</b>	Jizzax shahri	4 949
Arnasoy tumani	896	Zarbdor tumani	874
Baxmal tumani	1 404	Mirzacho‘l tumani	677
G‘allaorol tumani	1 741	Zafarobod tumani	537
Sharof Rashidov tumani	2 614	Paxtakor tumani	918
Do‘stlik tumani	676	Forish tumani	1 263
Zomin tumani	1 649	Yangiobod tumani	470

**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning  
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi  
(2025- yil 1-iyul holatiga, birlik)**

	2025- yil 1-iyul holatiga ro‘yxatga olinganlar soni	Shu jumladan, 2025- yil yanvar-iyun oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>50 481</b>	<b>1 912</b>	<b>1 509</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 695	417	353
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	3 033	180	57
Baxmal	4 313	107	86
G‘allaorol	5 640	225	212
Sharof Rashidov	6 883	264	148
Do‘stlik	2 175	85	99
Zomin	4 955	151	130
Zarbdor	3 791	93	108
Mirzacho‘l	2 441	67	54
Zafarobod	2 269	54	23
Paxtakor	2 504	94	66
Forish	2 694	99	137
Yangiobod	1 088	76	36

2025- yilning yanvar–iyun oylarida jami 1 912 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olindi (shundan kichik biznes sub’yektlari 1 821 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 21,8 %i), Sharof Rashidov (13,8 %), G‘allaorol (11,8 %) hamda Arnasoy (9,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar  
bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)

	2025- yil 1-iyul holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2025- yil yanvar-iyun oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>32 771</b>	<b>1 872</b>	<b>1 379</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 622	417	353
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 437	176	51
Baxmal	2 325	106	75
G'allaorol	3 044	220	172
Sharof Rashidov	4 631	262	140
Do'stlik	1 283	80	91
Zomin	2 892	148	127
Zarbdor	1 628	91	75
Mirzacho'l	1 255	57	49
Zafarobod	1 093	54	23
Paxtakor	1 630	93	61
Forish	2 135	99	133
Yangiobod	796	69	29

2025- yilning yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 1 872 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 1 781 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 417 tasi, yoki 22,3 %), Sharof Rashidov (262 ta, 14 %), G'allaorol (220 ta, 11,8 %) va Zomin (148 ta, 7,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil 1-iyul holatiga 29 303 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 21 696 ta, xususiy korxonalar 4 528 ta, oilaviy korxonalar 2 609 ta, boshqa tijorat korxonalar 470 tani tashkil etdi.

**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 32,0 %i savdo, 24,2 %i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 13,2 %i sanoat va 9,1 %i yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 1 379 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.


**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2025- yilning 1-iyul holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 226 tani tashkil etdi.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 93 ta, Turkiya Respublikasi 75 ta, Rossiya Federatsiyasi 46 ta, Buyuk Britaniya 4 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 8 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar, 128 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-2025- yillar 1-iyul holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 23 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga kamaygani kuzatildi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 13 ta,

Turkiya Respublikasi – 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 2 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 3 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**  
(2025- yil 1-iyul holatiga, birlikda)

	2025- yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>226</b>	<b>98</b>	<b>128</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	83	32	51
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	15	3	12
Baxmal	6	3	3
G'allaorol	15	7	8
Sharof Rashidov	21	8	13
Do'stlik	7	2	5
Zomin	22	9	13
Zarbdor	5	2	3
Mirzacho'l	4	1	3
Zafarobod	9	4	5
Paxtakor	9	7	2
Forish	26	17	9
Yangiobod	4	3	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 83 ta (umumiy miqdordagi ulushi 36,7 %), Forish tumanida 26 ta (11,5 %), Zomin tumanida 22 ta (9,7 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (9,3 %), Arnasoy tumanida 15 ta (6,6 %) hamda G'allaorol tumanida 15 ta (6,6 %) ni tashkil etdi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**  
(2025- yil 1-iyul holatiga)


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>226</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24	10,6
Sanoat	115	50,9
Qurilish	14	6,2
Savdo	26	11,5
Tashish va saqlash	5	2,2
Yashash va ovqatlanish	4	1,8
Axborot va aloqa	24	10,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,4
Boshqa faoliyat turlari	13	5,8

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 226 ta korxonaning 115 tasi (50,9 %) sanoat, 26 tasi (11,5 %) savdo, 24 tasi (10,6 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 14 tasi (6,2 %) qurilish, 5 tasi (2,2 %) tashish va saqlash, 4 tasi (1,8 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 24 tasi (10,6 %) axborot va aloqa hamda 13 tasi (5,8 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2025- yil 1-iyul holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 492 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,4 %ga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 224 tasi (27,3 %) Jizzax shahriga, 2 273 tasi (14,7 %) Sharof Rashidov, 1 441 tasi (9,3 %) G'allaorol va 1 347 tasi (8,7 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15 492 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 064 tasi (19,8 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 224 tasi (33,7 %) savdo, 2 302 tasi (14,9 %) sanoat, 1 191 tasi (7,7 %) qurilish, 1 254 tasi (8,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 376 tasi (2,4 %) tashish va aqlash, 255 tasi (1,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 228 tasi (1,5 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 598 tasi (10,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri kelib, eng kam ulushlar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining  
iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2025- yilning yanvar–iyun oylarida yangi 1 781 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etildi. Bu esa 2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 26,5 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (404 ta), Sharof Rashidov (259 ta), G'allaorol (194 ta) tumanlarida, eng kam xo'jalik sub'yektlari Zafarobod (53 ta), Mirzacho'l (54 ta), Yangiobod (68 ta), Do'stlik (72 ta), Forish (82 ta) hamda Paxtakor (88 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo (571 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (432 ta), sanoat (235 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (162 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (182 ta) hissalariga, eng kamlari esa, qurilish (103 ta), axborot va aloqa (43 ta), tashish va saqlash (31 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'satish (22 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1-iyul holatiga 2 609 tani tashkil etdi, ulardan 1 279 tasi yoki 49,0 % i faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 429 tasi yoki 33,3 % i savdo, 408 tasi yoki 31,9 % i sanoat, 219 tasi yoki 17,1 % i yashash va ovqatlanish xizmatlari, 128 tasi yoki 10,0 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 15 tasi yoki 1,2 % i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, qolgan 5,2 % i boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Xususiy korxonalar soni (2025- yil 1-iyul holatiga, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2025- yil 1-iyul** holatiga ko'ra 4 528 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 343 taga yoki 0,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 1 984\_ tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 502 taga yoki 20,2 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 65 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 140 taga yoki 2,1 barobarga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2025- yil 1-iyul holatiga, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yil 1-iyul holatiga 21 696\_ tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 450 taga yoki 7,2 % ga o'sganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 080 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 653 taga yoki 5,7 % ga o'sganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 572 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 331 taga yoki 17,4 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

